KIBERMAKONDA XRISTIANLIKKA OID DINIY JARAYONLARNI O‘RGANISHNING ILMIY ASOSLARI

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ХРИСТИАНСКИХ РЕЛИГИОЗНЫХ ПРОЦЕССОВ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ

SCIENTIFIC BASES OF THE STUDY OF CHRISTIAN RELIGIOUS PROCESSES IN CYBERSPACE

ABDULLAYEVA MOHIRA,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN
senior lecturer, PhD chair of “Religious studies and the comparative study of world religions UNESCO”

NIG‘MATULLAYEV Ibrohim,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN
2nd years master of “Comparative religious studies” speciality
Ibrohim2907@umail.uz

DOI: 10.47980/IIAU/2023/2/7

Annotatsiya: *Bugungi kunda internet tarmoqlari ijtimoiy turmush tarzining barcha sohalariga kirib bormoqda va foydalanuvchilarga katta imkoniyat yaratmoqda. Diniy jarayonlar raqamli texnologiyalarda namoyon bo‘lmoqda. Xristian diniy amaliyotlarining kibermakondagi transformatsiyasi jadal davom etmoqda. Xristianlik amaliyotlari onlayn ko‘rinishga olib chiqilmoqda. Mazkur holatlarni diniy amaliyotlar, ya’ni muayyan ibodat va diniy marosimlarni bajarishda kuzatish mumkin. Cherkov amaliyotlarining kibermakonga transformatsiyasi kundan kunga rivojlanib bormoqda.*

Xristianlikning internetga dastlab kirib kelgan oqimlaridan biri – protestantlik hisoblanadi. Protestantlik oqimlaridan biri bo‘lgan presviterianlikda diniy amaliyotlarning kibermakonga o‘tishi yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Kibermakonda protestantlik oqimlaridan biri bo‘lgan presviterianlik amaliyotlarining o‘ziga xos tomonlari, afzalligi, kamchiligi, sodir bo‘layotgan xristianlik bilan bog‘liq diniy jarayonlarning namoyon bo‘lish xususiyatlarini ilmiy asoslangan holda tahlil qilish mavzuning dolzarbligini keltirib chiqaradi.

Ushbu maqolada “internet cherkov”, “onlayn cherkov”, “kibercherkov” yoki “raqamli (elektron) cherkov” kabi tushunchalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, afzalliklari, rivojlanish tendensiyalari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, maqolada kibermakonda xristianlikka oid diniy jarayonlarni o‘rganishning ilmiy asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur sohada tadqiqot olib borgan Adair Windham, G.Reyngold, J.Barna, H.Campbell, T.Hutchings kabi olimlarning fikrlari tahlil qilingan, ularning kibermakonda xristianlikka oid diniy jarayonlarni o‘rganishga oid fikrlari bayon qilingan. Diniy amaliyotlarni raqamli texnologiyalarda aks etishi sifatida onlayn ibodat, onlayn din shakllari, diniy ma’lumotlarni onlayn to‘plash, onlayn ibodat va marosimlar, onlayn ishga qabul qilish va missionerlik, onlayn diniy hamjamiyat, din va internet bo‘yicha tadqiqotlar, onlayn din tadqiqotlarining umumiy mavzulari, onlayn diniy jamoa, diniy urf-odatlar xususidagi ma’lumotlar va olimlarning qarashlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, maqolada onlayn ibodatni o‘rganish, raqamli yevangelizm (xushxabar) va uning shakllari, onlayn jamoat, raqamli nashrlar va elektron adabiyotlar, ilovalar va o‘yinlarga qaratilgan tadqiqotlarga oid ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *kibermakon, diniy amaliyot, presviterianlik, onlayn cherkov, virtual tarmoq, raqamli texnologiya, onlayn ibodat.*

Аннотация: *Сегодня интернет-сети проникают во все сферы общественной жизни и открывают перед пользователями большие возможности. Религиозные процессы проявляются в цифровых технологиях. Трансформация христианских религиозных практик в киберпространстве продолжается быстрыми темпами. Христианские практики переносятся в онлайн форме. Эту ситуацию можно наблюдать и в религиозных практиках, то есть при совершении определенных молитв и религиозных церемоний. Преобразование церковных практик в киберпространстве происходит день ото дня.*

Одним из первых потоков христианства, проникших в Интернет, является протестантизм. В пресвитерианстве, одном из протестантских течений, очевиден перенос религиозных практик в киберпространство.

Научно обоснованный анализ особенностей, преимуществ, недостатков пресвитерианских практик, одного из протестантских течений в киберпространстве и проявлений религиозных процессов, связанных с христианством, обуславливает актуальность темы.

Также в статье описаны научные основы изучения религиозных процессов, связанных с христианством, в киберпространстве. Также были проанализированы мнения таких ученых, как Адэр Виндхэм, Г. Рейнгольд, Дж. Барн, Х. Кэмпбелл, Т. Хатчингс, проводивших исследования в данной области, и их взглядов на изучение религиозных процессов, связанных с христианством в киберпространстве. Анализируются взгляды ученых на онлайн-формы религии, онлайн-сбор религиозной информации, онлайн-поклонение и ритуалы, онлайн-вербовку и миссионерскую работу, онлайн-религиозное сообщество, онлайн-религиоведение, общие темы, информацию о религиозных традициях. Кроме того, в статье представлена информация об исследованиях, посвященных онлайн-поклонению, цифровому евангелизму (евангелизму) и его формам, интернет-сообществу, цифровым публикациям и электронной литературе, приложениям и играм.

Ключевые слова: *киберпространство, религиозная практика, пресвитерианство, церковь онлайн, виртуальная сеть, цифровая технология, онлайн молитва.*

Annotation: *Today, Internet networks are entering all areas of social life and creating great opportunities for users. Religious processes are manifested in digital technologies. The cyberspace transformation of Christian religious practices continues apace. Christian practices are being brought online. These situations can be observed in religious practices, that is, in the performance of certain prayers and religious ceremonies. The transformation of church practices into cyberspace is progressing day by day.*

The first streams of Christianity to enter the Internet is Protestantism. In Presbyterianism, one of the Protestant movements, the transfer of religious practices to the cyberspace is evident.

Scientifically based analysis of the unique aspects, advantages, disadvantages of Presbyterian practices, one of the Protestant movements in cyberspace, the manifestation of religious processes related to Christianity, brings the relevance of the topic.

The article presents information about concepts such as "internet church", "online church", "cyberchurch" or "digital (electronic) church" and their specific features, advantages, and development trends.

In addition to this, the article describes the scientific basis of studying religious processes related to Christianity in cyberspace. Along with this, the ideas of scientists such as Adair Windham, G. Reingold, J. Barna, H. Campbell, T. Hutchings, who conducted research in this field, were analyzed, and their opinions on the study of religious processes related to Christianity in cyberspace were described. Online worship, online forms of religion, online religious information gathering, online worship and rituals, online recruitment and missionary work, online religious community, online religious community, religion and internet studies, online religious studies general topics, online religious community, information about religious traditions and views of scholars are analyzed. In addition, the article provides information on studies focusing on online worship, digital evangelism (evangelism) and its forms, online community, digital publications and e-literature, apps and games.

Key words: *cyberspace, religious practice, presbyterian, online church, virtual network, digital technology, online worship.*

KIRISH

Bugungi kunda internet tarmog‘i ijtimoiy turmush tarzining barcha sohalariga kirib bormoqda va foydalanuvchilarga katta imkoniyat yaratmoqda.

Xristian jamoalari o‘zlarining diniy faoliyatlarini osonlashtirish maqsadida “Internet cherkov”, “onlayn cherkov”, “kibercherkov” yoki “raqamli (elektron) cherkov” kabi turli xil usullardan foydalanadilar va bu, ayniqsa, ularga duo, munozara, ma’ruza va ibodat xizmatlarida qo‘l kelmoqda.

Mazkur xizmatlar haqiqiy real hayotga taqlid qilish, kundalik ish-faoliyatlarni raqamli texnologiyalarga “almashtirish” va inson ehtiyojlarini qondirish uchun amalga oshirilganligi ta’kidlanadi. Shu sababli, diniy amaliyotni raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirish tarafdorlari ish, kasallik, uzoq masofa tufayli imkoni bo‘lmagan yoki haqiqiy diniy muassasaga tashrif buyurish istagi yo‘qlar uchun mazkur kibermakondagi diniy amaliyotlar mos kelishini qayd etganlar.

“Onlayn cherkovlar” yoki “internet cherkovlar” deb nomlanuvchi internetga asoslangan xristian jamoalari 2000-yillarning boshlarida mashhurlikka erisha boshladi. O‘shandan beri ular institutsional investitsiyalar, yanada murakkab ijtimoiy tarmoqlarning yuksalishi va erkin foydalanish mumkin bo‘lgan virtual olamlarning paydo bo‘lishiga javoban keskin rivojlandi. Onlayn muloqot ommalashgani va kompyuterlarning narxi arzonlashgani sababli kompyuter bilan bog‘liq aloqalar kengayib, dinning internetda gullab-yashnashiga sabab bo‘lgan.

USLUBLAR

Xristianlik dinining Internetga kirib kelishi va tez fursatlarda yoyilishi, butun dunyo bo‘ylab e’tiqod qiluvchilarning e’tiborini tobora ko‘proq jalb etishi natijasida olimlarning nigohi bu jarayonlarni tadqiq etishga qaratildi.

Tadqiqotchi Michael Adair Windhamning 1996-yilda yozilgan “Kibercherkov: kibermakondagi xristian jamoasi” nomli dissertatsiyasi kompyuterlardan foydalanish orqali kengayib borayotgan muloqot o‘rnatish va bunday tushunchalarning cherkov xizmati uchun kelib chiqadigan natija-oqibatlarini ko‘rib chiqishga qaratilgan. Dissertatsiyada sotsiologik va teologik nuqtayi nazardan yondashgan holda kibermakondagi xristianlarning o‘zaro ta’sirini ishtirokchi-kuzatish usuli orqali tadqiq etilgan (Quarterman, 2005:24).

Bugungi kunda xristian jamoalari o‘zlarining diniy faoliyatlarini osonlashtirish maqsadida “Internet cherkov”, “onlayn cherkov”, “kibercherkov” yoki “raqamli (elektron) cherkov” kabi turli xil usullardan foydalanadilar va bu, ayniqsa, ularga duo, munozara, va’z (ma’ruza) va ibodat xizmatlarida qo‘l kelmoqda.

“Onlayn cherkovlar” yoki “internet cherkovlar” deb nomlanuvchi internetga asoslangan xristian jamoalari 2000-yillarning boshlarida mashhurlikka erisha boshladi. O‘shandan beri ular institutsional investitsiyalar, yanada murakkab ijtimoiy tarmoqlarning yuksalishi va erkin foydalanish mumkin bo‘lgan virtual olamlarning paydo bo‘lishiga javoban keskin rivojlandi. Onlayn muloqot ommalashgani va uy kompyuterlari arzonlashgani sababli kompyuter bilan bog‘liq aloqalar kengayib, dinning internetda keng tarqalishiga sabab bo‘ldi.

Kibercherkovlar hatto, pastor va cherkov a'zolarining o'zaro aloqasi uchun pochta xizmatidan foydalanishni boshladilar yoki ba'zan oldindan yozib olingan teleko'rsatuvlar orqali uzatishlardan foydalandilar. Zamonaviy internet cherkovlari o'z a'zolariga ko'proq va tez-tez interaktiv yondashuv bilan shunga o'xshash muqobil variantlarni taqdim etganlar (Wyndham, 1996:53).

Amerikalik sotsiolog va tanqidchi G.Reyngold xristian diniga oid dastlabki virtual tarmoq tizim va forumlar, ularning asoschilarini birinchilardan bo'lib tadqiq etgan. Uning fikricha, dastlabki xristian diniy forumlarda biror yetakchi yoki nazorat qiluvchi organning bo'lmaganligi, tijoriy maqsadlar ko'zlanmaganligi, ishtirokchilarning asosiy e'tibori ularni o'ylantirayotgan muammo yuzasidan fikr almashish hamda muayyan "amaliyotlar"ni har kuni birgalik bajarishga qaratganligi mazkur forumlarning o'ziga xos jihatlari sanaladi (Wong, 2022:41).

Dinshunos va yozuvchi Jorj Barna o'zining "Inqilob" kitobida ushbu atamani "Internet orqali yetkaziladigan ruhiy tajribalar doirasi"ni tasvirlash uchun ishlatgan (Barna, 2012:23). Jorj Barna kibercherkovni kelajakdagi cherkovning bo'lajak "makro-ifodalari" (keng ko'lamli shakllari)dan biri sifatida ko'radi (Campbell, 2016:87).

Tadqiqotchi Heidi Campbellning 2006-yildagi "Din va Internet" nomli tadqiqot ishida din va internetni o'rganishni shakllantirish, internetdan diniy foydalanish tarixi, onlayn din shakllari, diniy ma'lumotlarni onlayn to'plash, onlayn ibodat va marosimlar, onlayn ishga qabul qilish va missionerlik, onlayn diniy hamjamiyat, din va internet bo'yicha tadqiqotlar, onlayn din tadqiqotlarining umumiy mavzulari, onlayn diniy jamoa, diniy urf-odatlar xususidagi ma'lumotlar tahlil qilingan (Campbell, 2011:64).

Amerikalik tadqiqotchilar Heidi Campbell va Alessandra Vitulloning "Raqamli din tadqiqotlarida diniy jamoalarni faoliyatidagi o'zgarishlarni baholash" nomli maqolasida so'nggi o'ttiz yillikda raqamli dinshunoslik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni diqqat bilan ko'rib chiqadi, xususan, diniy jamoalar mazkur sohada qanday o'rganilganligi va ularga oid yondashuvlarga urg'u bergan. Heydi Campbell va Alessandra Vitulloning ushbu davrda paydo bo'lgan diniy jamoalar bo'yicha tadqiqotning to'rt bosqichi sifatida tavsiflangan davrda olimlar tomonidan qo'llaniladigan hukmron nazariy va uslubiy yondashuvlarni tahlil qilgan va diniy jamoalarni onlayn o'rganish vaqt o'tishi bilan qanday rivojlanganligini yoritib bergan.

Heidi Kempbell raqamli dinni "Onlayn va oflayn diniy sohalar integratsiyalashuvi natijasida paydo bo'ladigan texnologik va madaniy makon" [8], deb ta'riflaydi. Mazkur madaniy makon esa bugungi kunda tadqiqotchilarni hayratda qoldirishda davom etmoqda.

Tadqiqotchi Stephen Jacobsning "Virtual muqaddaslik: onlayn makonda kibermarosimlarning bajarilishi" nomli 2007-yilda chop etilgan maqolasida oflayn kontekstdan onlayn kontekstga o'tishda muqaddas joylar dizayni va marosimlarning amalga oshirilishi qay tarzda o'zgarishga yuz tutishi tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida ikki veb-sayt: xristian virtual cherkovi va hindu virtual ibodatxonasi semiotik tahlil qilingan. Maqolada virtual ibodatxonada kiberpujaning bajarilishi va virtual cherkovda ibodatlarning qanday amalga oshirilishi e'tibor qaratilgan (Hutchings, 2015:48).

Tim Hutchings Nottingem universiteti San'at fakulteti "Diniy etika" kafedrasi dotsenti, raqamli dinlar sotsiologi hisoblanadi. Uning PhD dissertatsiyasi (Durham universiteti, 2010) beshta onlayn xristian cherkovining tadqiqotiga bag'ishlangan edi. U Bibliyadan raqamli matn sifatida o'lim va onlayn jamoalarda motamgacha bo'lgan mavzularni o'rgangan.

Tim Hutchings din, ommaviy axborot vositalari va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etgan, ayniqsa xristianlikning raqamli texnologiyalarda aks etishiga o'z e'tiborini qaratgan. Uning tadqiqoti onlayn ibodatni o'rganish, raqamli yevangelizm (xushxabar) va uning shakllari, onlayn jamoat, raqamli nashrlar va elektron adabiyotlar, ilovalar va o'yinlarga qaratilgan (Hutchings, 2017:66).

Tim Hutchings tadqiqoti diniy etika, ommaviy axborot vositalari etikasi, dinni o'rganish va tadqiqot usullariga qaratilgan bo'lib (Hutchings, 2019:59), din, ommaviy axborot vositalari va madaniyat sohasida keng miqyosda tadqiqot olib boradi. Uning hozirgi kundagi tadqiqotlari xristian video o'yinlari, onlayn ibodat, Covid-19 pandemiyasiga xristianlarning javoblari va diniy jurnalistikani o'z ichiga oladi. Tim Hutchings, shuningdek, dinlarni tadqiq etishda "din va dunyoqarashlar"ni ham tadqiq qilmoqda (Hutchings, 2017:78).

Tim Hutchings jamiyat a'zolarining ommaviy axborot vositalari, texnologiyalar va din o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan tadqiqot dasturini ishlab chiqmoqda. Uning tadqiqotlari uchta savolga javob topishga qaratilgan: Diniy jamoalar axloqiy tamoyillarni o'rgatish uchun raqamli mediadan qanday foydalanadilar? Qanday axloqiy tamoyillar diniy jamoalarni ommaviy axborot vositalaridan foydalanishga nisbatan sog'lom munosabatlarni rivojlantirishga yo'naltiradi? Diniy jamoalar ommaviy axborot vositalarining gullab-yashnagan jamiyatga qo'shadigan ijobiy va salbiy hissalarini qanday tushunadilar?

Tadqiqotchining kibermakondagi diniy jarayonlar, xususan, xristianlik dini bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlari sifatida "Raqamli xristianlik" , "Raqamli dinni o'rganishda kechinmalar, rituallar va ularni his qilish qoidalari" (Cheong, 2012:125), "Onlayn cherkov

yaratish: ritual, jamoat, yangi ommaviy axborot vositasi" (Hutchings, 2019:79), "Elektron mutolaa va xristian Bibliyasi" (Hutchings, 2015:122), "Diniy jurnalistikaning raqamli kelajagi" (Duce, 2013:56) kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

NATIJA

Olimning tadqiqotlari xristianlik ommaviy axborot vositalariga, jumladan, onlayn cherkovlarni o'rganishga (Hutchings, 2019:67), prozelitizm (Hutchings, 2012:124) va raqamli Injillarga (Hutchings, 2014:12) qaratilgan va "Onlayn cherkov yaratish: ritual, jamoat, yangi ommaviy axborot vositasi" nomli 2017-yilda chop etilgan kitobida shu kabi masalalarga urg'u beriladi.

Tadqiqotchi "Onlayn cherkov yaratish: ritual, jamoat, yangi ommaviy axborot vositasi" nomli kitobida onlayn cherkovlar xususidagi qarashlarni bayon qilgan. Tim Hutchings tomonidan ta'riflagan "onlayn cherkovlar" bo'yicha o'zining tadqiqotida juda oz sonli yangi dinga kirganlarni uchratganligini ta'kidlaydi. Uning kuzatuvlariga ko'ra, onlayn ishtirokchilarning aksariyati muntazam ravishda mahalliy cherkovga tashrif buyurishgan, ba'zan yakshanba kuni ertalab tashrif buyurishgan va kechqurun o'zlarining onlayn jamoatiga qo'shilish uchun uyga kelganlar. Ba'zi ishtirokchilar nogironlik, salbiy tajribalar yoki diniy kelishmovchiliklar tufayli mahalliy cherkovga kela olmaganlar, ammo bu ozchilik ham o'tmishda mahalliy jamoatning bir qismi bo'lgan (Hutchings, 2019:61).

Tim Hutchingsning fikriga ko'ra, yana bir asosiy diqqatga sazovor joy anonimlik edi: onlayn cherkov ko'plab ishtirokchilar uchun shaxsiy va shuning uchun xavfsiz joy, ularning oflayn do'stlari, oilalari va jamoatlari bilmagan qo'llab-quvvatlash tarmog'i edi. Ba'zi cherkovga tashrif buyuruvchilar o'zlarining turli xil ijtimoiy dunyoqarashlarini boshqalar bilan ulashishdan xursand bo'ldilar, ammo boshqalar ularni qat'iy ravishda alohida saqlashni talab qildilar.

Olim suhbatlashgan onlayn cherkov rahbarlarining ko'pchiligi raqamli madaniyatning o'tkinchiligidan xavotir oldilar va o'z auditoriyalarini yuqori darajadagi majburiyatga undashga harakat qildilar. Agar ishtirokchilar a'zoning uyidagi ekran atrofida to'planishsa yoki har hafta shaxsiy suhbat xonasida vaqt o'tkazishsa, bu rahbarlar mahalliy jamoatdagi mas'uliyat va tartib-intizomning bir qismi onlayn tarzda takrorlanishi mumkin, deb umid qilganlar. Amalda, bunday tashabbuslar kamdan-kam qo'llab-quvvatlanadi: onlayn aloqa o'z-o'zidan yo'naltiriladi va ishtirokchilar o'zlarining didlari va ehtiyojlariga ko'ra turli xil onlayn tarmoqlarga osongina kiradilar. Uning fikriga ko'ra, internet xristianlarga turli nuqtayi nazardan ma'lumot, yangiliklar va sharhlardan, jumladan, ilohiyot ta'limoti, voizlik va turli xil xizmatlardan foydalanish imkonini beradi.

Pastor Devid Yonggi Cho 2001-yilda xristianlik xizmatining kelajagini muhokama qilish uchun "Saddleback" cherkovi ruhoniysi Rik Uorren bilan uchrashganida, shubhali akkauntlarning birida bir juftlik "xristianlikning o'ziga xos brendlari bilan son-sanoqsiz millionlab odamlarning uylariga kirish uchun kibermakondan foydalanishni" rejalashtirgan va yangi turdagi global diniy imperiyani yaratgani xabar qilingan (Hutchings, 2019:78).

Tadqiqotchi Janice L.Ducening "Yevxaristiya marosimining kibermakondagi amaliyoti bo'yicha izlanish" nomli nomli falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida "Yevxaristiya" marosimining kibermakondagi amaliyotini ko'rib chiqadi, jamoat kibermakonda mazkur marosimni amalga oshirish natijasida bahs-munozaralar vujudga kelgan jamiyatini o'rganishga qaratilgan (Gilmore, 2009:98).

Kayla Jo Gilmorening "Devorsiz cherkov: Cherkovning onlayn hududida markaziy xristianlik jamiyatini topish" nomli magistrlik dissertatsiyasida onlayn cherkov jamoalarining farqlari va o'xshashliklarini, shuningdek, an'anaviy cherkov joylashuvlarini o'rganadi. Kayla Jo Gilmore xulosa sifatida onlayn va an'anaviy cherkov jamoalari aslida talqin qiluvchi jamoalar ekanligini va onlayn cherkov jismoniy cherkovning o'rnini bosa olmasligini, balki uni to'ldirishini ta'kidlab o'tgan (Wyndham, 1996:21).

Olim Clayton E.Quartermanning "Presviterianlik siyosati va presviterian missionerligi bo'yicha tadqiqot" nomli falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida presviterian cherkovlaridagi cherkov hokimiyatini turli xil to'siqlardan bosqichma-bosqich o'tkazish va bu jarayonda presviterian tartibining asosiy tamoyillarini inkor etmasdan madaniy jihatdan mos keladigan amaliyotlarni topish mumkinligini taklif qiladi, presviterianlikka oid tadqiqotlardagi bo'shliqlarni to'ldiradi (Niyazova, 2021:4).

Tadqiqotchi Taleyna M.Morrisning "Kibermakondagi ajoyib marhamat: jamoat veb-saytlari identifikatsiyasi" nomli falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida jamoat veb-saytlari tashkiliy identifikatsiya strategiyalarini o'z ichiga oladimi yoki yo'qligini o'rganadi.

MUHOKAMA

Olim tomonidan amalga oshirilgan mazkur tadqiqotda foydalanilgan 50 ta jamoat veb-saytlari Amerika Qo'shma Shtatlaridagi eng katta o'nta xristian

konfessiyalaridan tasodifiy tanlab olingan (Niyazova, 2021:5).

Tadqiqotchi Michael Adair Wyndhamning "Kibercherkov: kibermakonda xristianlar jamoasi" nomli falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida kibertexnologiyaning jamiyatning mazmunli va funksional ta'riflariga ta'sirini ko'rsatadi va bunday ta'sirlarning axborot asrida cherkovlarning xizmat paradigmalariga ta'sirini ko'rib chiqadi. Ushbu dissertatsiyaning maqsadi kompyuterlardan foydalanish orqali cherkov xizmatlarining jamiyat uchun amaliy natija va oqibatlarini ko'rib chiqish hisoblanadi (Nig'matullaev, 2022:4).

Teresa Bergerning "Kibermakonda liturgik amaliyotlar tadqiqi" nomli maqolasida onlayn ibodat, onlayn liturgik amaliyotlar va ularning tartibga solinishi, kibermakondagi birinchi cherkov va uning vujudga kelish tarixi, "Yevxaristiya" marosimining kibermakonda qanday amalga oshirilishi mumkinligi xususidagi qarashlar yoritib berilgan (Nig'matullaev, 2021:6).

Tadqiqotchi Sh.Niyazovaning "Xristian dinining kibermakonga kirib kelish tarixi" nomli maqolasida kibermakonga xristian dinining kirib kelishi, mazkur dinga oid ilk virtual forumlar, guruhlar, tarmoq va veb-saytlar tarixi to'g'risida so'z yuritilgan. Bu jarayonlarni tadqiq etgan olimlarning din, xususan, xristianlikning Internetda keng yoyilishi va buning o'ziga xos jihatlari borasidagi nuqtai nazarlari ochib berilgan. E'tiborlisi, bu jarayonlarning guvohi bo'lgan yoxud shaxsan ishtirok etgan AQShlik, Kanada va angliyalik olimlarning shaxsiy kuzatuvlaridan misollar keltirilgan. Din va internet mavzusidagi tadqiqotlar uch davr (to'lqin) ga bo'linishi hisobga olingan holda har bir davrning yetakchi namoyandalari tadqiqotlariga to'xtalib o'tilgan. Ushbu izlanishlar natijasida qanday xulosalarga kelingani bayon etilgan.

Tadqiqotchi Sh.Niyazovaning "Rim-katolik cherkovining kibermakonga nisbatan pozitsiyasi tahlili" nomli maqolasida xristianlikning yirik yo'nalishlaridan biri bo'lmish katolikning kibermakonga va internetdan foydalanishga bo'lgan pozitsiyasi o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Rim katolik cherkovi birinchilardan bo'lib, internetning kuchi va ahamiyatini munosib baholay olgan va o'z missiyasini amalga oshirishda undan samarali foydalanishni boshlagan. Tadqiqot davomida katolik cherkovining oliy rahnamolari qanday asoslarga tayanib, raqamli texnologiyalardan diniy maqsadlarda foydalanishga xayrixohlik bildirgani tahlil qilingan. Katolik yo'nalishi kibermakonga qachon va qanday ko'rinishlarda kirib kelgani bayon qilinib, bugungi kunda Rim-katolik cherkovi va katolik veb-saytlarining onlayn faoliyatiga nazariy baho berilgan (Siuda, 2000:77).

Tadqiqotchi Sh.Niyazovaning "Oqimlarning internetda gavdalanishi: protestantizmning presviterianlik va baptistlik yo'nalishlari misolida" nomli maqolasida kibermakonga birinchilardan bo'lib kirib kelgan xristian dini, xususan, uning oqim va yo'nalishlari to'g'risida so'z yuritilgan. Tadqiqotda xristian jamoalari dastlabki onlayn tarmoq va veb-saytlarni yaratishidan ko'zlagan maqsadlari ochib berilgan. AQSh presviterian cherkovi hamda dunyodagi eng yirik baptistlar milliy tashkiloti – Janubiy baptistlar konvensiyasining saytlari tahlil uchun olinib, bu saytlarda ko'rsatgan ilk onlayn xizmatlar, ularning ko'lami va zarurati o'rganilgan (Taleyna, 1999:78).

2021-yilda Piotr Siuda tomonidan yozilgan "Raqamli dinni xaritalash: yangi tipologiyalarga bo'lgan ehtiyojni o'rganish" nomli maqolada Internetdagi diniy ma'lumotlarning yangi tipologiyalariga bo'lgan ehtiyoj o'rganilgan va raqamli dinni xaritalash uchun kontseptual asos taklif etilgan. Tadqiqot Internetdagi diniy ma'lumotlarning Helland tomonidan taqdim etilgan tasnifi asosida yoritilgan (Teresa Berger, 2013:66).

Tadqiqotchi Deborah Ann Wongning 2022-yilda yozilgan "Lokdaundagi liturgiya: cheklangan harakat, kengaytirilgan ibodat" nomli maqolasida pandemiya vaqtida ibodatlarning qanday o'tkazilganligi xususidagi ma'lumotlarni tahlil qilgan. U karantin davridagi din haqida gapirarkan, Heidi A.Kempbellning: "Ko'plab cherkovlar yangi ibodat vositasi sifatida raqamli texnologiyalarni qabul qilgan bo'lsa-da, asosiy yondashuv ibodatga qaratilgan", - degan fikrini tadqiqotida misol sifatida keltirgan (Tim Hutchings, 2007:33).

Tadqiqotchi Martin Kasserlining ta'kidlashicha, bugungi kunda internet onlayn cherkovlarni ortda qoldirgan. Mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar va tezkor o'zaro ta'sirlar dunyosida "raqamli cherkovlarning kelajagi ilgari jozibador bo'lib ko'ringan saytdan ko'ra ochiq, markazlashtirilgan va foydalanuvchilarga yanada mos keladi". Ehtimol, tanqidchilar har doim ta'kidlaganidek, cherkovda jismonan yig'ilishni onlayn jamoat bilan almashtirish g'oyasi tubdan noto'g'ridir. Martin Kasserli aytganidek, onlayn cherkov qachonlardir haqiqatga aylanadimi yoki yo'q noma'lumligicha qolmoqda (Jacobs, 2007:17).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xristianlar bugungi kunda ko'plab internet foydalanuvchilari My Space, Xanga, va Facebook va boshqa shu kabi ijtimoiy tarmoqlardan

tobora ko‘proq foydalanmoqda. Bu saytlar blog yuritish texnologiyasining ko‘p qismini o‘z ichiga oladi, lekin foydalanuvchilar o‘rtasida aniqroq aloqalarni o‘rnatadi, bu ularga tizim ichida bir-birlariga “xabar yozish”lari, rasmiy ravishda “do‘stlar” sifatida ulanishlari, bir-birlarini baholashlari imkonini beradi. Mazkur xizmatlar haqiqiy real hayotga taqlid qilish, kundalik ish-faoliyatlarni raqamli texnologiyalarga “almashtirish” va inson ehtiyojlarini qondirish uchun amalga oshirilganligi ta’kidlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Clayton Э. Quarterman The Application of Presbyterian Polity and Transfer of Leadership in Cross-cultural Situations A Study in Presbyterian Missiology. Submitted to the University of Wales in fulfillment of the equirements for the Degree of Doctor of Philosophy University of Wales, Lampeter June 9, 2005. ProQuest nformation and Learning Company 300 North Zeeb Road P.O. Box 1346 Ann Arbor, MI 48106-1346.
2. CyberChurch: Christian community in cyberspace - ProQuest
3. Deborah Ann Wong. Liturgy in Lockdown: Restricted Movement, Expanded Worship. Religions 2022, 13, https://doi.org/10.3390/rel13010025 https://www.mdpi.com/journal/religions
4. George Barna. “Revolution”. Tyndale House, 2005.
5. Heidi Campbell Alessandra Vitullo. Assessing changes in the study of religious communities in digital religion studies. Church, communication and culture, 2016 VOL. 1, №. 1, 73–89.
6. Heidi Campbell. Religion and the Internet. Communication research trends volume 25 (2006). №.1-3.
7. https://en.wikipedia.org/w/index.php?title=Internet_church&oldid=1062989467
8. https://en-academic.com/dic.nsf/enwiki/11596594#History
9. Hutchings T. 21 Digital humanities and the study of religion. – 2015.
10. Hutchings T. Creating Church Online: Ritual, Community and New Media. Routledge, 2017. https://doi.org/10.4324/9780203111093.
11. Hutchings T. Digital Christianity. – Bloomsbury Publishing, 2019.
12. Hutchings T. Digital Futures of Religion Journalism. *In:* YOEL COHEN, ed., Spiritual News: Reporting Religion Around the World Peter Lang. 2018.
13. Hutchings T. Emotion, Ritual and Rules of Feeling in the Study of Digital Religion. In A. Possamai-Inesedy, & A.Nixon (Eds.), The Digital Social De Gruyter, 2019.
14. Hutchings T. E-Reading and the Christian Bible. Studies in Religion/Sciences Religieuses, 44 (4), 2015. 423-440. doi:10.1177/0008429815610607
15. Janice L. Duce. A Theological inquiry regarding the practice of the eucharist in cyberspace. A Dissertation Presented to the Faculty of the University of Denver and the Iliff School of Theology Joint PhD Program University of Denver. In Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree Doctor of Philosophy, 2013. ProQuest LLC. 789 East Eisenhower Parkway P.O. Box 1346 Ann Arbor, MI 48106 – 1346.
16. Kayla Jo Gilmore. A Church without walls: finding community in central christian church’s online campus. Master of Arts Degree in Journalism and Media Studies Hank Green spun Department of Journalism and Media Studies Green spun College of Urban Affairs Graduate College University of Nevada, Las Vegas, December 2009. ProQuest LLC 789 East Eisenhower Parkway P.O. Box 1346 Ann Arbor, MI 48106-1346.
17. Michael Adair Wyndham. Cyberchurch: christian community in cyberspace. A Dissertation Presented to the Faculty of The Southern Baptist Theological Seminary. In Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree Doctor of Philosophy, 1996.
18. Niyazova S. History of the entry of christianity into cyberspace //The Light of Islam. – 2021. – T. 2021. – №. 2. – C. 76-83.
19. Niyazova S. Oqimlarning internetda gavdalanishi: protestantizmning presviterianlik va baptistlik yo‘nalishlari misolida // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 7.
20. Nig‘matullayev I. Kibermakonda presviterianlik amaliyotlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari //Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar. – 2022. – T. 1. – №. 13. – C. 12-16.
21. O‘G‘Li, Ibrohim Ma’Ruf. “Presviterianlikda “onlayn ibodat” ning o ‘ziga xos xususiyatlari.” Scientific progress 2.7 (2021): 1332-1335.
22. Piotr Siuda. Mapping Digital Religion: Exploring the Need for New Typologies. Religions 2021, 12, 373. https://doi.org/10.3390/rel12060373, https://www.mdpi.com/journal/religions.
23. Rheingold H. (1993). The virtual community: Homesteading on the electronic frontier. Cambridge: The MIT Press. 2000 (second addition).
24. Taleyna M. Morris Amazing grace in cyberspace: identity and dentification on congregational websites. M.A., Missouri State University, 1999. Submitted to the Department of Communication Studies and the Faculty of the Graduate School of the University of Kansas In partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy. ProQuest Information and Learning Company 300 North Zeeb Road P.O. Box 1346 Ann Arbor, MI 48106-1346.
25. Teresa Berger. Exploring liturgical practices in Cyberspace, QL (2013) 94 266-286.
26. Tim Hutchings. Creating Church Online: Ritual, Community and New Media.https://www.researchgate.net/publication/317777483_Creating_Church_Online_Ritual_Community_and_New_Media
27. Virtually Sacred: The Performance of Asynchronous Cyber-Rituals in Online Spaces - Jacobs - 2007 - Journal of Computer-Mediated Communication - Wiley

Online Library First published: 06 June 2007 https://doi.org/10.1111/j.1083-6101.2007.00365.x
28. Ниязова Ш. Рим-католик черковининг кибермаконга нисбатан позицияси таҳлили // Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 11/S.

REFERENCES

1. Clayton E. Quarterman The Application of Presbyterian Polity and Transfer of Leadership in Cross-cultural Situations A Study in Presbyterian Missiology. Submitted to the University of Wales in fulfillment of the equirements for the Degree of Doctor of Philosophy University of Wales, Lampeter June 9, 2005. ProQuest nformation and Learning Company 300 North Zeeb Road P.O. Box 1346 Ann Arbor, MI 48106-1346.
2. CyberChurch: Christian community in cyberspace - ProQuest
3. Deborah Ann Wong. Liturgy in Lockdown: Restricted Movement, Expanded Worship. Religions 2022, 13, https://doi.org/10.3390/rel13010025 https://www.mdpi.com/journal/religions
4. George Barna. “Revolution”. Tyndale House, 2005.
5. Heidi Campbell Alessandra Vitullo. Assessing changes in the study of religious communities in digital religion studies. Church, communication and culture, 2016 VOL. 1, №. 1, 73–89.
6. Heidi Campbell. Religion and the Internet. Communication research trends volume 25 (2006). №.1-3.
7. https://en.wikipedia.org/w/index.php?title=Internet_church&oldid=1062989467
8. https://en-academic.com/dic.nsf/enwiki/11596594#History
9. Hutchings T. 21 Digital humanities and the study of religion. – 2015.
10. Hutchings T. Creating Church Online: Ritual, Community and New Media. Routledge, 2017. https://doi.org/10.4324/9780203111093.
11. Hutchings T. Digital Christianity. – Bloomsbury Publishing, 2019.
12. Hutchings T. Digital Futures of Religion Journalism. *In:* YOEL COHEN, ed., Spiritual News: Reporting Religion Around the World Peter Lang. 2018.
13. Hutchings T. Emotion, Ritual and Rules of Feeling in the Study of Digital Religion. In A. Possamai-Inesedy, & A.Nixon (Eds.), The Digital Social De Gruyter, 2019.
14. Hutchings T. E-Reading and the Christian Bible. Studies in Religion/Sciences Religieuses, 44 (4), 2015. 423-440. doi:10.1177/0008429815610607
15. Janice L. Duce. A Theological inquiry regarding the practice of the eucharist in cyberspace. A Dissertation Presented to the Faculty of the University of Denver and the Iliff School of Theology Joint PhD Program University of Denver. In Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree Doctor of Philosophy, 2013. ProQuest LLC. 789 East Eisenhower Parkway P.O. Box 1346 Ann Arbor, MI 48106 – 1346.
16. Kayla Jo Gilmore. A Church without walls: finding community in central christian church’s online campus. Master of Arts Degree in Journalism and Media Studies Hank Green spun Department of Journalism and Media Studies Green spun College of Urban Affairs Graduate College University of Nevada, Las Vegas, December 2009. ProQuest LLC 789 East Eisenhower Parkway P.O. Box 1346 Ann Arbor, MI 48106-1346.
17. Michael Adair Wyndham. Cyberchurch: christian community in cyberspace. A Dissertation Presented to the Faculty of The Southern Baptist Theological Seminary. In Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree Doctor of Philosophy, 1996.
18. Niyazova S. History of the entry of christianity into cyberspace //The Light of Islam. – 2021. – T. 2021. – №. 2. – C. 76-83.
19. Niyazova S. Oqimlarning internetda gavdalanishi: protestantizmning presviterianlik va baptistlik yo‘nalishlari misolida // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 7.
20. Nig‘matullayev I. Kibermakonda presviterianlik amaliyotlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari //Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar. – 2022. – T. 1. – №. 13. – C. 12-16.
21. O‘G‘Li, Ibrohim Ma’Ruf. “Presviterianlikda “onlayn ibodat” ning o ‘ziga xos xususiyatlari.” Scientific progress 2.7 (2021): 1332-1335.
22. Piotr Siuda. Mapping Digital Religion: Exploring the Need for New Typologies. Religions 2021, 12, 373. https://doi.org/10.3390/rel12060373, https://www.mdpi.com/journal/religions.
23. Rheingold H. (1993). The virtual community: Homesteading on the electronic frontier. Cambridge: The MIT Press. 2000 (second addition).
24. Taleyna M. Morris Amazing grace in cyberspace: identity and dentification on congregational websites. M.A., Missouri State University, 1999. Submitted to the Department of Communication Studies and the Faculty of the Graduate School of the University of Kansas In partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy. ProQuest Information and Learning Company 300 North Zeeb Road P.O. Box 1346 Ann Arbor, MI 48106-1346.
25. Teresa Berger. Exploring liturgical practices in Cyberspace, QL (2013) 94 266-286.
26. Tim Hutchings. Creating Church Online: Ritual, Community and New Media.https://www.researchgate.net/publication/317777483_Creating_Church_Online_Ritual_Community_and_New_Media
27. Virtually Sacred: The Performance of Asynchronous Cyber-Rituals in Online Spaces - Jacobs - 2007 - Journal of Computer-Mediated Communication - Wiley Online Library First published: 06 June 2007 https://doi.org/10.1111/j.1083-6101.2007.00365.x
28. Niyazova Sh. Rim-katolik cherkovining kibermakonga nisbatan pozisiyasi tahlili // Obщyestvo i innovasii. – 2021. – T. 2. – №. 11/S.